

## QURDOSH QAHRAMONOV HAQIDA IKKI OG‘IZ SO‘Z

**Boqijon To‘xliyev,**  
*TDSHU professori,*  
*filologiya fanlari doktori*

Qurdoosh Qahramonov bilan adabiyot deyilgan muborak manzilda hamqadam bo‘lib kelayotganimizga yaqinda yarim asr bo‘lib qoladi. Taqdirning inoyati bilan O‘zbekiston Fanlar akademiyasiining O‘zbek tili va adabiyoti (Hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori) institutida, keyin esa Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida uzoq yillar birga ishladik. Ko‘ngilning istak va ixtiyori bilan esa qadrdonligimizning tarixi ham ancha uzun bo‘lganidan iftixor qilaman. Qurdoosh tufayli olamda Pangat degan go‘zal va serjilo, xushmanzara va so‘lim qishloqdagi qalbi daryo odamlar bilan tanishganman. Qurdooshning rahmatli otasi Yalg‘ash otaning o‘sha uzoq tog‘ qishlog‘idan bizga atab ikki dona olma ko‘chatining berib yuborganlari bu qadrdonligimizning oltin muhrlaridan biri bo‘lganini o‘rtoqlarimizning ko‘pi yaxshi biladi. Xuddi shuningdek, Qurdoosh ham bizning qishlog‘imizda bo‘lgan, aka-ukalarim hozirgacha ham qishloqqa borganimda yoxud o‘zlari Toshkentga kelganlarida boshqa o‘rtoqlar qatorida Qurdooshni ham birinchilar qatorida so‘rab turishlari shu yaqinlikning o‘ziga hos shohidlari ekani ko‘ngillarga iftixor tuyg‘ini indiradi.

O‘rni kelganida aytib o‘tayin, Qurdoosh bilan o‘ziga xos hamkorligimiz ham tilga olsa arzigudek: ikkalamiz birgalikda Abdusaid aka Ko‘chimovning taklif va daldasi bilan “O‘zbekistondagina emas, butun yer yuzida ham yakka-yu yagona bo‘lgan “Tong yulduzi” (bosh muharrir lutflaridan – B.T.) gazetasida Qadimgi turkiy adabiyot, O‘rxun obidalari, “Devonu lug‘ot it-turk”, “Qutadg‘u bilig” haqida maqolalar yozganmiz. Respublikaning turli ta‘lim muassasalari, xususan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va oliy o‘quv yurtlarida tashkil etiladigan til va adabiyot fanlariga oid to‘g‘alaraklar tuzishning me‘yoriy hujjatlariga oid takliflar ishlab chiqishda birga-birga ishtirok etganmiz.

Bu muqaddimaning muddaosi shundan iboratki, Qurdooshning oddiy tadqiqotchi, izlanuvchilik davridan hozirgi fan doktori, professor darajasigacha bosib o‘tgan mashaqqatli, ammo sharaflil ilm yo‘lini ham yaxshi tasavvur qilaman. Shunga ko‘ra, bu borada ikki og‘iz so‘z aytishga ham burchli, ham mas‘ul ekanimni muhtaram o‘quvchilarga ham bildirib qo‘yishdir.

Qurdoosh adabiyotning barcha sohalari bilan birdek shug‘ullanib keladi. Ammo uning “Bolalar adabiyoti” deyilgan sohasi ko‘nglidan mustahkamroq joy olgan. Har holda uning ilk maqola va kuzatishlarining ko‘proq mana shu sohaga bog‘liq ekani

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tasodifiy emas. Nomzodlik dissertatsiyasining ham ayni shu sohada *“Bolalar adabiyotida realistik prinsiplarning shakllanishida adabiy tanqidning roli”* mavzusida (1988) ekani mutlaqo tabiiydir. Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Qambar Ota, Dilshod Rajab, Kavsar Turdiyeva singari shu manzilningegalari haqidgi maqola va kitoblar mana shu sohaga muhabbatning sarxil mevalaridir. U *“Istiqlol davri o‘zbek tanqidchiligi metodologiyasining yangilanish tamoyillari”* mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini (2012) himoya qilgan edi.

Qurdoşning o‘zida ijodkorlik ruhi tug‘ma tarzda shakllangan. Har holda ugnung badiiy ijod sohasidagi qoramalari bejiz emas. Ayni mana shu xususiyat, mening nazarimda, uning boshqa ijodkorlarning ijodiy laboratoriyasini. ularning shaxsiyatidgi nozik nuqtalarni tezroq va teranroq ilg‘ash imonini bergan bo‘lsa ajab emas. Bu holat uning alohida ijodkorlar haqidagi kuzatishshlarida, ayniqsa, bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Shuhrat, Qambar Ota, Abusaid Ko‘chimov, Eshqobil Shukur... yana boshqalar haqidagi kitob va maqolalar ayni mana shu sohada munosib misol va yorqin dalil bo‘la oladi.

Ijodkor shaxsiyatini tadqiq etishning shakl va usullari ko‘p. Gap har bir ijodkorning o‘zigagina xos bo‘lgan fazilat va tamoyillar haqida borganida esa, mana shu yo‘llarning eng mos va munosibini topish ishning baror olishidagi asosiy nuqta hisoblanadi. Bu borada ham Qurdoşga havas qilsak arziydi. U har bir ijodkorning o‘zdigini ko‘rsatishning eng maqbul va manzur shakllarini hassoslik bilan topadi. Masalan, o‘z davrida ham, adabiyotimiz tarixida ham o‘chmas iz qoldirgan Shuhratning boshqalarga o‘xshamaydigan shaxsiyati va ijodiy manerasini topish, izohlash va boshqalar nazariga yetkazish uchun, ijtimoiy-ma‘naviya hayot, sobiq sovet tuzumining “anvoyi” raftorlariga qisqagina ekskurs yo‘lidan foydalanadi. O‘sha fonda Shuhratning “Oltin zanglamas”romanining vujudga kelishi, ijodkorning o‘ziga xos mahorati ham, jasorati ham ekanini juda ishonarli va aniq misol va tahlililar vositasida ko‘rsatib beradi.

Shoir she‘rlarida ko‘ngilning xilma-xil suvratlari chizilgan. Bu suvratlar ba‘zan hissiyot va fikr uyg‘unligida kelsa, ba‘zan tasavvur hayotiy mantiqni, real voqelikni o‘ziga singdirgan bo‘ladi. Shoirning “Yolg‘izlik...” she‘rini o‘qir ekansiz, daf‘atan ko‘z oldingizga muallaq chayqalib turgan yurak namoyon bo‘ladi.

Erkin Vohidov haqida bir umumlashma berish niyatida yozilgan maqolada qamrovning kengligiga qaramay “adabiy materiallar”ni tanlash, saralash va umumlashtirishdagi o‘ziga xosdiklar ko‘zga tashlanadi. U adib sha‘siyatidagi fenomenal qirralarni yaxshi ilg‘aydi, uning o‘zigagina xos fazilatldar mohiyatini boshqalaarga yetkazishda ham munosib ifodalardan foydalanadi. Bir she‘r, bir adabiy

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

hodisa, bitta kichikkina detal uninga katta umumlashma va to‘htamlarga kelish uchun kifoya qiladi.

Ma’lumki, “Inson” qasidasi lirik ohanglarda ifodalangan falsafiy asardir. Unda qasida janrining yangi qirralari namoyon bo‘ladi. Odatda, qasida janri atoqli insonlar yoki muhim tarixiy voqealarni madh etishi bilan xarakterlanadi. Shoir “Inson” qasidasida insonni nafaqat ulug‘laydi, ayni chog‘da uni buyukligi-yu yovuzligi, qudrati-yu ojizligi, xullas, butun murakkabligi bilan tasvirlaydi. Bu hol inson tushunchasini bir tomonlama emas, balki mukammal tasavvur etish imkoniyatini yaratadi”.

O‘zbekiston qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidovning go‘zal she’riyati, dramalari, keng ma’noda, turfa rang qalb tug‘yonlari jo bo‘lgan bitiklari XX asr ikkinchi yarmi va mustaqillik davri o‘zbek taraqqiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan badiiy durdonalardan hisoblanadi. Muallif ayni mana shu durdonalarning yuzaga kelishi, inson shuuriga ko‘rsatadigan ta’sir kuchi haqida maroq bilan gapiradi. Bu mulohazalar samimiyligi, dalillarga boyligi va yetarlicha badiiy-estetik asoslarga tayangani uchun ham ishonarli va ta’sirli shaklga ega bo‘ladi. Maqoladagi qamrov va tahlillar o‘quvchini muallif bilan birgalikda “Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov o‘zbek adabiyotining har tomonlama kamol topishiga yuksak hissa qo‘shgan buyuk shoirlardan biridir,”– tarzidagi yakunga olib keladi.

U Eshqobil Shukur she’riyati haqida gapirar ekan, “Tog‘larning ko‘ksida yurak loladay”, “Osmon yechib tashlar ko‘ylaklarini”, “Armonga aylangan tirnog‘im bilan // Yurak po‘stlog‘iga yozaman doston” kabi namunalar vositasida uning o‘ziga xos tasavvur olamini, dunyoni ko‘rishshi va boshqadarga ko‘rsatish uslublarini namoyon etadi. qalb kechinmasining poetiklashgan manzaralari shoir iqtidorini namoyon etadi (2014).

Qurdosh o‘z mushohadalarini teran mantiq, o‘tkir ko‘z va tabiiy samimiyat bilan bildiradi. U gapirayotganiday yozadi, yozayotganiday gapiradi. Shuning uchun ham Qurdoshning qalamidan chiqqan ilmiy tafakkurning har qanday mahsuli, mummoning og‘ir yoki murakkablik darajasidan qat’iy nazar o‘quvchi uchun “hazmi yengil” to‘xtamlar sifatida tasavvur etiladi.

“Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari” (2009) mutaqqillik davridagi adabiy tanqidning yangilanish jarayonlari haqidagi jiddiy kitoblardan biri bo‘lganiini e’tirof etish kerak. Muallif sobiq savet davridagi adabiy tanqidning ham o‘ta “siyosiylashuvi”, asosiy omillar sifatida iqtisodiy. Siyosiy va mafkuraviy omillarnigina tan olinib kelganini qayd qilar ekanbularning tanqid fani uchun mustaham asos bo‘la olmasligini tanqid qiladi. Ayni paytda, o‘z qarashlarini ichki va tashqi omillar sifatida alohida ko‘rinishlarining mazmuni va mohiyati haqida

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

mulohazalarini olg‘a suradi. Bunda “munaqqid “men”i, shaxsiyati, dunyoqarashi, intuitsiyasi, tafakkur tarzi v iste’dodi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi” (15), – deb maxsus ta’kidlaydi. U ijtimoiy ma’naviy sohadagi o‘zgarishlarning o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab kuchaya borgani, bunda alohida tanqidchilarning o‘rni va ular bildirgan mulohazalarning ijtimoiy-estetik ahamiyati haqida so‘z yuritadi. “Mangu barhayot asarlar”, XX asr adabiyotini qayta baholash, badiiy asarni baholashdagi me’yor va meyezonzlarning yangilanishi kabi muammolar borasidagi mulohazalar Qurdooshi yirik nazariyotchi olim sifatida o‘sha davrlarda (ikki minginchi yillardayoq) shakllanib kelayotganining munosib alomatlari sifatida ko‘rina boshlaganini e’tirof etish joiz.

“Ijod va e’tiqod. Abusaid Ko‘chimov ijodiga chizgilar” (2022) alohida mehr va muhabbat bilan yartilgan asarlardan biri. Bu ijodkor haqida matbuotda juda ko‘p maqollar yuzaga kelganini mutaxassislar yaxshi bilishadi. Shunga qaramay, Qurdooshi qalami bu adibning adabiy-ijodiy portretini yaratishda juda erkin va maroq bilan tebrangani ko‘rinib turibdi. U gapni ijodkor shaxsidan boshlaydi. Shaxs sifatida uning og‘ir, bosiq va mehr-muhabbat bilan liq to‘la ko‘ngil egasi ekanligi, samimiyati, o‘zidagi tabiiy xislat va fazilatlarining qat’iy va bardavomligi, tashkilotchi hamda ishchanligi, muhimi, o‘zidagi xudo bergan iste’dod va qobiliyatni asrab-avaylab, uni faqat ezgulik sari yo‘naltirib kelayotgani yorqin lavhalar, aniq faktlar, shaxsiy kuzatishlar asosida ko‘rsatib boriladi. Kitobdagi asosiy to‘xtamlarni ixchai tarzda shunday ak ettirish mumkin:

Abusaid Ko‘chimov – “bolalar uchun ham, kattalar uchun ham birdek ijod qiladigan shoir” (6).

Shoirning voqeband she’rlar yozish uchun rag‘bati, mayl va istagi boshqalarga qaraganda ochiqroq ko‘rinadi. Ularda Vatan madhi shoir”men”i va qalb kechinmalari bilan birlashib uyg‘un holda tasvirlanadi”, “Shoir nazdida, millat va vatan tuyg‘usi nihoyatda kuchli” (23).

A.Ko‘chimov she’rlarining yana biir tayanch nuqtasi insoniylik, insoniy tuyg‘ularni kuylashda ko‘rinadi. Olim shoirning ota o‘g‘itlari haqidagi she’rini juda go‘zal, tabiiy, samimiy, muhimi, yuksak professionallik bilan tahlil qiladi. Tahlilda she’rning bosh g‘lyasi mazmun va mohiyati, ifoda imkonlari-yu ijodkorning bu boradagi iste’dod va qobiliyatining namoyon bo‘lish shakllari juda tiniq ifodalarda ochiqlanadi.

Qurdoosh o‘zbek nasri nazariyasini chuqur biladi. Shunga ko‘ra Abusaid Ko‘chimovning nasri haqidagi kuzatish va to‘xtamlar juda ohorli, tosh bosadigan tarzda namoyon bo‘ladi. Buning uchun adibning bir qator hikoya va qissalariga tayanadi. Ularning umumo‘zbek nasri bilan yaqin jihatlari ham, ayni mana shu

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

jaryonda ulardagi takrorlanmas, o‘ziga xos xususiyatlar ham yaxshi ko‘rsatib beriladi. “O‘g‘il” hikoyasida sho‘ro davri fojialari, jumladan, o‘tgan asrning saksoninchi yillarida avj olgan “paxta ishi”, “O‘zbek ishi” kabi qatag‘on siyosatining bola taqdiri va qismatidagi mash‘um o‘rni xarakterli epizodlar orqali ifodalanadi”.

Yozuvchi nasrining mavzu va muammolar doirasi, ularning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyati munaqqidning diqqat markazida turadi. “Baland tog‘lar”, “Qayta tug‘ilgan bola”, “Boychechak”, “Ishqibozlar”, “Oq kaptarlar” singari qissalar ayni mana shu yo‘lda tahlil etiladi. Nasriy asarlardan ayrimlarining real hayotiy asoslarga, prototiplarga, aniq tarixiy hodisa va shaxslarga ishora qilishi haqidagi kuzatishlar ham shoyoni tahsindir.

Kitobning alohida bobi A.Ko‘chimovning essenavislik mahorati tahliliga bag‘ishlangan. “El suv ichgan daryolar to‘plami haqida so‘z borar ekan olim shunday yozadi: “Albaatta, essedan joy olgan Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Pirmat Shermuhamedov, Mahmud Sa‘diy, Azim Suyun, Qozoqboy Yo‘ldoshev kabi el suygan ijodkorlarning betimsol bitiklari sizni bizning ruhimizni poklashga, ma‘naviyatimizni boyitishga xizmat qilgani shubhasiz” (69). Ayni ma‘na shu qaydlarda A.Ko‘chimov esselarining asosiy mohiyati ixcham va lo‘nda tarzda ifolalangan deyish mumkin. Har bir esse tahlilida Qurdoshdagi sinchkovlik, adabiy-estetik hodisalar mohiyatini ilg‘ashdagi hassoslik esse muallifidagi nozik kuzatish va umumlashmalar mohiyatini kitobxonlarga yetkazishda nihoyatda qo‘l kelgan.

Bunga “ob‘ekt”ning o‘zi ham keng imkon bergan. Zero, Abusaid Ko‘chimov haqida aynan mana shunday yozilishi kerak edi. Qurdosha buni sharaf bilan uddalagan.

Qurdosha ning ilmiy tadqiqotlari sirasida adabiy jarayonning nazariy hamda amaliy muammolariga ham katta e‘tibor mavjud. Ayniqsa, ijod va ijodkorlik, adabiyotshunoslikning metodologik asoslari, badiiy ijoddagi asosiy tutumlar uni ko‘proq qiziqtiradi. E‘tibor berilsa, ayni mana shu mavzu va muammolar o‘zbek adabiyotshunosligida ko‘plab bahs va munozaralarning doimiy ob‘ekti bo‘lib kelgan. Olimning “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Sharq yulduzi”, “Yoshlik” jurnallarida, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasining ko‘plab sonlarida bosilgan “Yangicha tafakkur talqini”, “Adabiy tanqidning metodologik asoslari”, “Absurd faqat ma‘nisizlikmi?”, “Biografik talqin imkonlari”, “Adabiy tanqidda modern asar talqini”, singari maqolalari ko‘proq shu jabhaga oidligi bilan xoslangan. Ushbu maqolalarning bir qismi “Adabiy jarayon va estetik talqin” kitobiga kiritilgan.

Kitobda boshqa turdagi maqolalar ham mavjud. Ularning bir qismida ijodkor va badiiy mahorat masalalari muhokamaga tortilgan. Xususan, Cho‘lpon, Asqar Muxtor, Muhammad Yusuf haqidagi sahifalar katta zavq va chuqur bilimdonlik bilan

## **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

yozilgan. Kitobning “Dil izhori” bo‘limi ustozlar sabog‘i mazusini qamrab olgan. Bu yerda Ozod Shparafiddinov, Asil Rashidov, Baxtiyor Nazarov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Tursunboy Adashboyevsingriyirik olimlar va ijodkorlar haqidagi kuxtishlarning o‘zig xos tajassumi jamlangan.

Qurdooshning umumiy pedagogik tajribasi deyarli ellik yilni tashkil etadi. Mana shu ulkan hayotiy kuzatish va saboqlarning natijasi sifatida u oliy ta‘lim uchun “*O‘zbek adabiy tanqidi tarixi*”, “*Adabiyot nazariyasi*”, “*O‘zbek adabiyoti tarixi*”, “*O‘zbek bolalar adabiyoti*”, “*Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti*” o‘quv kurslari bo‘yicha ko‘plab o‘quv dasturlari, ma’ruza matnlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorladi. U yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash ishiga muunosib hissa qo‘shib kelmoqda. Hazrat Navoiy tili bilan aytganda, u yigitlikda ilm maxzanini yiqqan bo‘lsa, endilikda uni xarj qilish bilan band. Bu borada qarddon do‘stimizga umrining ham, ilmiy-ijodiy hosillarning ham barakali bo‘lishini tilab qolamiz.